CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.01/2026.26.08.Ped.04.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

TAYMANOVA ELNORA LUTFULLAYEVNA

STEM YONDASHUVI ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI TAYYORLASHNING RAQAMLI METODIK TA’MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH

13.00.06 – Raqamli ta’lim nazariyasi va metodikasi

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UDK: 378.011.3-051:004

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical sciences

Taymanova Elnora Lutfullayevna
STEM yondashuvi asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning raqamli metodik ta’minotini takomillashtirish.……..…….....3

Тайманова Элнора Лутфуллаевна
Совершенствование цифрового методического обеспечения подготовки будущих учителей на основе STEM-подхода…….……..…...21

Taimanova Elnora Lutfullaevna
Improvement of the digital methodological support for training future teachers based on the STEM approach…….…….....….....41

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of publications……..….....….....45

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.01/2026.26.08.Ped.04.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

TAYMANOVA ELNORA LUTFULLAYEVNA

STEM YONDASHUVI ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI TAYYORLASHNING RAQAMLI METODIK TA’MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH

13.00.06 – Raqamli ta’lim nazariyasi va metodikasi

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.1.PhD/Ped12467 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.cspi.uz) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Fayziyeva Maxbubaxon Raximjonovna**
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar: **Lutfillayev Maxmud Xasanovich**
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Zaripova Dilnoza Anvarovna
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dotsent.

Yetakchi tashkilot: **Guliston davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.01/2026.26.08.Ped.04.03 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil “27” 11 kuni soat 16⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. Tel:(+998)70-712-27-55; faks: (+998)70-712-45-41; e-mail: tvchdpi@cspu.uz).

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (580 raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil:111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. Tel.: (998) 70-712-27-55; faks: (+998) 70-712-45-41

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “16” 11 kuni tarqatildi.
(2026-yil “16” 11 dagi 47 raqamli reyestr bayonnomasi).

F.U.Qodirova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, p.f.d. (DSc), professor

I.D.Qodirov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, p.f.b.f.d. (PhD), dotsent

D.A.Ximmataliyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dunyoda STEM yondashuvi asosida ta’limni tashkil etish hamda raqamli ta’limni rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ilmiy va amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, UNESCO, BMT hamda OECD kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan strategik hujjatlar va konvensiyalar asosida ta’limni raqamlashtirish, masofaviy va aralash ta’lim tizimlarini joriy etish, raqamli kompetensiyalarni shakllantirish hamda ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan dasturlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, “UNESCO Recommendation on Open Educational Resources (2019)”[1], hujjati ochiq ta’lim resurslarini yaratish, ulardan foydalanish va ularni ommalashtirish orqali ta’limda tenglik hamda ochiqlikni ta’minlashga qaratilgan. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan “OECD Learning Compass 2030”[2] konsepsiyasi esa, talabalarda STEM ko‘nikmalarini, jumladan, raqamli savodxonlik, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal etish kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Ushbu xalqaro hujjatlar xalqaro miqyosda zamonaviy, moslashuvchan va inklyuziv raqamli ta’lim tizimini shakllantirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Dunyo ta’lim sohasida ilmiy tadqiqot muassasalarida STEM ta’lim texnologiyasini joriy etish, raqamli ta’limning pedagogik modelini ishlab chiqish, uning didaktik va metodik imkoniyatlarini aniqlash hamda turli fanlar doirasida integratsiyalashgan o‘quv dasturlarini ishlab chiqish masalalari bo‘yicha bir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Oliy ta’lim muassasalarida bu texnologiyasidan samarali foydalanish imkoniyatini oshirishda raqamli ta’lim resurslarini hamda vositalarini yaratish, bunda LMS (Learning Management System) tizimlaridan unumli foydalanish usullarini takomillashtirish, talabalarning individual ta’lim olishiga, ya’ni ta’limni shaxsiylashtirishga bo‘lgan ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, moslashtirilgan ta’lim muhitini shakllantirish va raqamli ta’lim samaradorligini tahlil qilish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda oliy ta’lim tizimini raqamli texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish, yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning me’yoriy-huquqiy asoslari yaratilmoqda. Xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta’limning ilg‘or standartlarini joriy etish, o‘quv jarayonini nazariy bilim berishdan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirish hamda ta’lim sifatini yangi bosqichga ko‘tarish ustuvor vazifa etib belgilangan. Bu esa, zamonaviy ta’lim yondashuvlari, xususan STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) yondashuvi asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonini takomillashtirishni talab etadi. Mazkur sharoitda maskur yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli metodik ta’minotini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki ushbu yondashuv fanlararo integratsiyani ta’minlash, muammoli vaziyatlarga yechim topish, amaliy va ijodiy ko‘nikmalarni rivojlantirish orqali ta’lim samaradorligini oshiradi. Shu nuqtayi nazardan, raqamli

[1] UNESCO Recommendation on Open Educational Resources (OER). – Paris: UNESCO, 2019. – 20 p.
[2] OECD Learning Compass 2030: A Series of Concept Notes. – Paris: OECD Publishing, 2019. – 152 p.

ta’lim resurslari, platformalar, interaktiv vositalar hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida metodik ta’minotni boyitish, uning didaktik modeli va qo‘llash metodikasini ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktyabrdagi PF-158-son “Kasbiy ta’limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta’lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2026-yil 10-apreldagi PF-58-son “Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2025-yil 28-aprel PQ-152-son “O‘zbekiston respublikasida ta’lim sifati va samaradorligini oshirish” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamizda ta’lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini integratsiyalash, elektron ta’lim vositalarini yaratish va ularni o‘quv jarayonida qo‘llash nazariyasi hamda metodikasi, A.A.Abduqodirov, M.A.Aripov, Sh.Abduraxmonova, F.M.Zakirova, M.R.Fayziyevalar; algebra va matematika o‘qitish metodikasi maktabini yaratgan olimlar Sh.A.Ayupov, B.A.Omirov, A.X.Xudoyberdiyev, N.Y.Sodiqov, A.S.Yunusov ishlari o‘rganildi. STEM ta’limni tatbiq qilish, STEM ta’lim texnologiyasi o‘rganish va tadbiq qilishga doir ishlar D.A.Berdiyeva, Y.Maxmutazimova, T.G‘afforova, S.Choriyeva, D.L.Kamolova, B.M.Do‘monov, S.S. Raximova va boshqa ko‘pgina olimlar tomonidan olib borilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stliga kiruvchi mamlakatlarda A.G.Asmolov, A.L.Semenov, A.V.Khutorskoy, I.A.Zimnyaya, N.V.Kuzmina, V.A.Slastenin, K.Kudaibergenova hamda M.P.Shyshkinalarning ilmiy tadqiqotlarida STEM ta’limi hamda raqamli ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv, o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash va ta’limni raqamli transformatsiya qilish masalalari bo‘yicha izlanishlar olib borgan.

Xorijiy olimlardan R.W.Bybee, K.Becker, M.R.Odell, B.Means hamda M.Goosning ilmiy tadqiqotlarida STEM ta’limining nazariy asoslari, STEM ta’limining samaradorligi hamda matematik fanini boshqa fanlar bilan integratsiyalash masalalari keng yoritilgan. Ular raqamli vositalar orqali matematik tafakkurni vizuallashtirish va kognitiv multimedia prinsiplarini asoslagan.

A.W.Bates, L.D.Hammond, D.Laurillard, M.Ludwig hamda Y.Lining ilmiy izlanishlarida raqamli ta’lim, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash, raqamli hamda ta’limning raqamli transformatsiyasi masalalari tadqiq etilgan.

Tahlillar natijasiga ko‘ra xulosa qilib aytganda, ta’limida raqamli texnologiyalar va STEM yondashuvi bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilgan bo‘lsa-da, bo‘lajak o‘qituvchilarni raqamli-metodik qo‘llab-quvvatlash tizimini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirish zaruriyati mazkur tadqiqot ishining mavzusini belgilashga asos bo‘ldi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqot ishi Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining “Pedagogik yo‘nalishlar va mutaxassisliklar bo‘yicha ilg‘or pedagogika texnologiyalarini joriy etish, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, elektron ta’lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogika, multimedia va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish” nomli ustuvor yo‘nalish doirasida bajarilgan (2020-2024-yy.).

Tadqiqotning maqsadi STEM yondashuvi asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning raqamli metodik ta’minotini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda STEM yondashuvining didaktik imkoniyatlarini ochib berish;

bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning raqamli metodik modelini takomillashtirish;

bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda STEM yondashuviga asoslangan raqamli metodik ta’minotni rivojlantirish;

bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyogarligini baholash mezonlarini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida STEM yondashuvi asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning raqamli metodik ta’minotini takomillashtirish jarayoni tanlab olingan bo‘lib, tajriba-sinov ishlariga Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti, Guliston davlat pedagogika instituti va Chirchiq davlat pedagogika universitetlaridan 414 nafar talaba jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini STEM yondashuvi asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning raqamli metodik ta’minotini takomillashtirishning mazmuni, shakli, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda manbalarni o‘rganish va qiyosiy tahlil qilish, modellashtirish, sotsiometrik (anketa, test, so‘rov, suhbat), bevosita va bilvosita pedagogik kuzatuv, pedagogik tajriba-sinov, natijalarni matematik-statistik qayta ishlash, tahlil qilish va umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat.

bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda STEM yondashuvining didaktik imkoniyatlari talabalarda tadqiqotchilik va raqamli modellashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi dinamik-interaktiv elektron metodik tizimni qayta aloqa muhitida refleksivlik ustuvorligida optimallashtirish asosida ochib berilgan;

bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning raqamli metodik modeli pedagogik faoliyat funksiyalariga yo‘naltirilgan interaktiv raqamli resurslarning STEM komponentlari bo‘yicha differensial adaptatsiyasini talabalarning virtual faoliyatini qulaylashtiruvchi kombinatsiyada ta’minlash asosida takomillashtirilgan;

bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning raqamli metodik ta’minoti STEMga asoslangan bilimlar sintezida ta’lim natijalari dinamikasini ta’minlovchi akademik-grafikli topshiriqlarni Desmos, Symbolab, WolframAlpha dasturlari integratsiyasida individual traektoriya indikatorlariga ko‘ra qo‘llash asosida rivojlantirilgan;

bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyogarligini baholash mezonlari izlanishga, tajribaga asoslangan hamda krossover ta’lim metodlarini “STEMdigital1”, “STEMdigital2”, “STEMfuture” hamda “STEM Education” elektron o‘quv kurslari bo‘yicha tashkil etilgan interaktiv o‘quv jarayonida adaptiv qo‘llash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun STEM yondashuvi asosida ishlab chiqilgan loyiha ishlari, mustaqil ta’lim topshiriqlari tizimli ravishda ishlab chiqilib, “Mustaqil ishlar to‘plami” nomli uslubiy qo‘llanma amaliyotga joriy etilgan;

STEM yondashuvi asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning raqamli metodik ta’minotini takomillashtirishga qaratilgan “STEMdigital1”, “STEMdigital2”, “STEMfuture” hamda “STEM Education” nomli elektron kurslar yaratilib, https://canvas.instructure.com/courses/12478987 ta’limiy platformasi (№DGU 57762, 17.12.2025) pedagogik jarayonga joriy qilingan;

talabalarga Geogebra, MathDF, Desmos, Symbolab, WolframAlpha, MathAI kabi raqamli hisoblash vositalaridan foydalanishdagi malakalarini formativ baholashga mo‘ljallangan o‘quv topshiriqlari tayyorlangan;

STEM yondashuvi asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda raqamli metodik ta’minotdan foydalanishning didaktik modeli ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan yondashuv, usullar va ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, pedagogik ta’lim sohasidagi respublikamiz va xorijiy davlatlar olimlari, shuningdek, amaliyotchilarning ishlariga asoslangani, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi, o‘zaro bir-birini to‘ldirib boruvchi tadqiqot metodlarining qo‘llangani, tahlil va tadqiqot tavsifining miqdor hamda sifat jihatidan ta’minlangani, bajarilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlarining reprezentativligi hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil metodlari vositasida asoslangani, xulosa, taklif va

tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati STEM yondashuvining didaktik imkoniyatlari talabalarda tadqiqotchilik va raqamli modellashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi dinamik-interaktiv elektron metodik tizimni refleksiv qayta aloqa muhitida refleksivlik ustuvorligida optimallashtirish asosida ochib berilgani, raqamli metodik modelning pedagogik faoliyat funksiyalariga yo‘naltirilgan STEM kontekstida, talabalarning virtual faoliyatini qulaylashtiruvchi kombinatsiyada takomillashtiirlgani, talabalarning didaktik imkoniyatlarini oshirish va o‘rganish motivatsiyasini faollashtirishga qaratilgan virtual resurslar hamda metodlarning ilmiy-amaliy jihatdan asoslab berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati bo‘lajak o‘qituvchilarni maskur yondashuv asosida tayyorlashga xizmat qiluvchi o‘quv qo‘llanma nashr etilganligi, “STEM yondashuvi asosida bo‘lajak matematika o‘qituvchilarini tayyorlashning raqamli metodik ta’minoti” nomli dastur ishlab chiqilgan, talabalarning raqamli metodik ta’minotini takomillashtirish imkoniyatini taqdim etuvchi, maskur yondashuv asosida tayyorlangan raqamli ta’lim platformasi va uning tarkibida “STEMdigital1”, “STEMdigital2”, “STEMfuture” hamda “STEM Education” elektron o‘quv kurslarining yaratilganligi, oliy ta’lim muassasalarida talabalarning STEM ta’limi va undan foydalanishga bo‘lgan qiziqishini oshirishga simulyatsiya hamda talabalarda raqamli resurslardan samarali foydalanish qobilyatlarini shakllantirishga qaratilgan interaktiv dars ishlanmalari turli metodlar orqali takomillashtirilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. STEM yondashuvi asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning raqamli metodik ta’minotini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda STEM yondashuvining didaktik imkoniyatlari talabalarda tadqiqotchilik va raqamli modellashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi dinamik-interaktiv elektron metodik tizimni qayta aloqa muhitida refleksivlik ustuvorligida optimallashtirishga oid tavsiyalar “Algebra” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 5-oktabrdagi 387-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan 769454-sonli guvohnoma). Natijada, STEM yondashuvi asosida talabalarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning metodik ta’minoti takomillashtirilgan;

bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning raqamli metodik modelini pedagogik faoliyat funksiyalariga yo‘naltirilgan interaktiv raqamli resurslarning STEM komponentlari bo‘yicha differensial adaptatsiyasini virtual faoliyat kombinatsiyada ta’minlashga oid tavsiyalar 2025-2026 yillarda Erasmus dasturi doirasida “Markaziy Osiyoda “BigData Intelligent Analysis” bo‘yicha o‘quv va ilmiy markazlarni tashkil qilish va kurslarni ishlab chiqish” mavzusida amalga oshirilgan xalqaro amaliy loyihada foydalanilgan (Buxoro davlat texnika universitetining 2026-yil 9-sentabrdagi 01/04-135-son ma’lumotnomasi). Natijada,

ta’limni boshqarish tizimlaridan samarali foydalanishning metodik imkoniyatlari kengaytirilgan hamda talabalarning raqamli faolligini oshirishga xizmat qilgan;

bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning raqamli metodik ta’minoti STEMga asoslangan bilimlar sintezida ta’lim natijalari dinamikasini ta’minlovchi akademik-grafikli topshiriqlarni Desmos, Symbolab, WolframAlpha dasturlari integratsiyasida individual traektoriya indikatorlariga ko‘ra qo‘llashga oid takliflar Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti, Guliston davlat pedagogika instituti va Chirchiq davlat pedagogika universitetlarining o‘quv jarayoniga tatbiq qilingan (Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining 2026-yil 29-apreldagi 11-05-2518/04-son ma’lumotnomasi). Natijada, mutaxassislik fanlarini o‘qitishning raqamli imkoniyatlari oliy ta’lim amaliyotiga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika konferensiyasida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, shulardan, 3 tasi respublika va 5 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, 139 sahifa matn, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan tashkil topgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “Kirish” qismida mavzuning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, uning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi tahlil etilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obyekti hamda predmeti aniqlangan, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, e’lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“STEM yondashuvi asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning raqamli metodik ta’minotini takomillashtirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida STEM tushunchasi, STEM ta’limining kelib chiqishi, mazmun mohiyati, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashni STEM ta’limi asosida rivojlantirishning pedagogik muammolari, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashni o‘ziga xos xususiyatlari hamda STEM ta’limining imkoniyatlari yoritilgan.

STEM tushunchasiga ko‘plab olimlar tomonidan turlicha ta’riflar berilgani aniqlandi. Jumladan, Rodger Bybee “STEM – bu fan, texnologiya, muhandislik va matematikani birlashtirgan o‘quv yondashuvi bo‘lib, o‘quvchilarga integratsiyalashgan bilimlar orqali real hayot muammolarini hal etishga yordam beradi” deb ta’riflasa, James Breiner, Sheila Harkness, Carla Johnson, Catherine

Koehlerlar “Ta’limning bu turini integratsiyalashgan pedagogika sifatida belgilaydi, bunda fanlar alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq holda o‘rganiladi” deya ta’riflaydi. Thomas Kennedy va Mary Odell esa, “STEM – bu tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, hamkorlik va muammolarni yechish ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi ta’lim modeli” deya ta’rif beradi. National Science Foundation “STEM bu ilmiy va texnologik innovatsiyalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi konsepsiya” deya ta’riflaydi.

Yurtimiz olimlaridan U.S.Boboxodjayev va M.Q.Tuychiboyeva “STEM – bu ta’limga oid yondashuv bo‘lib, fan, texnologiya, muhandislik va matematikani birlashtiradi” deya ta’riflasa, N.I.Boltayeva “STEAM texnologiyasi fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikani integratsiyalashgan holda o‘rgatishga qaratilgan innovatsion pedagogik yondashuv” deb ta’rif beradilar.

Yuqorida keltirilgan mulohazalarga tayangan holda, tadqiqot ishida “**STEM ta’limi** – bu faqat fanlarni birgalikda o‘qitish emas, balki talabani mustaqil va kreativ fikrlaydigan, ijodkor va raqamli texnologiyadan mustaqil hamda samarali foydalana oladigan shaxs qilib tarbiyalovchi tizimdir” kabi mualliflik ta’rifi keltirildi.

Tadqiqot jarayonida ayni kunlarda AQSh, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Koreya, Xitoy, Germaniya, Yaponiya, Shveytsariya, Singapur va boshqa mamlakatlarning yetakchi universitetlarida STEM texnologiyasidan foydalanish bo‘yicha amaliy tajribalar tahlil qilindi. Dasturlarni tahlil qilish jarayonida raqamli ta’lim resurslarini ishlab chiqish, butun dunyo bo‘ylab ta’lim olish imkoniyatlarini taqdim etishga, yoshlarni ushbu ta’limga jalb qilish, internet va texnologiyalarni ta’lim tizimida keng qo‘llashga, ilmiy tadqiqotlar, texnologiyalarni ishlab chiqish va bu sohadagi xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslarni amalga oshirilgani aniqlandi.

Tahlillarga ko‘ra, ushbu yondashuv asosida ta’lim olishga imkon beruvchi raqamli ta’lim kursini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy ishlarga ehtiyoj mavjudligi aniqlandi.

Tadqiqot ishida zamonaviy ta’lim jarayonida STEM yondashuvini qo‘llash obyektiv hamda kommunikativ sohalarda ijobiy natijalarga erishishga yordam berishi aniqlandi. Bunday ta’lim nafaqat kasbiy mahorat darajasini oshirishga, balki talabalarning mavjud axborot ta’lim resurslaridan foydalanishga, o‘qituvchi bilan sifatli hamkorlik qilishga, birgalikdagi faoliyat hamda muloqotga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Qolaversa, STEM ta’lim modellaridan samarali foydalanish bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning didaktik imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tadqiqot davomida bir qancha xorijiy hamda yurtimiz olimlarining maskur yondashuvga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganganligi aniqlandi. Jumladan, R.W.Bybee hamda J.S.Krajcik ushbu ta’limga ta’sir etuvchi pedagogik va metodik omillarni o‘rgangan. L.D.Hammond pedagogik omillarni, K.Becker, K.Park esa, bu ta’lim jarayoniga ta’sir etuvchi pedagogik va texnologik omillarni, I.A.Zimnyaya psixologik omillarni, A.G.Asmolov texnologik hamda tashkiliy omillarni o‘rgangan.

Tadqiqot jarayonida maskur yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning raqamli metodik ta’minotini takomillashtirishga qo‘yiladigan didaktik, pedagogik, metodik, psixologik, texnik talablari ishlab chiqildi hamda

STEM yondashuvi asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayoniga ta’sir etuvchi pedagogik, psixologik, metodik, texnologik, tashkiliy omillar kompleks ravishda o‘rganilib, ularning o‘zaro bog‘liq ekanligi aniqlandi.



1-rasm. STEM yondashuvi asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashga ta’sir etuvchi omillar.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ushbu omillar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularni alohida qo‘llash ta’lim samaradorligini yetarli darajada oshirmaydi. Bunda pedagogik omillar metodik omillarsiz, texnalogik omillar pedagogik omillarsiz, psixologik omillar tashkiliy omillarsiz, metodik omillar texnologik omillarsiz to‘liq amalga oshmasligi aniqlandi.

Raqamli metodik ta’minot bu ta’lim samarali tashkil etish, ya’ni ta’lim sifatini oshirish va dars mashg‘ulotlarini zamonaviy talablar asosida tashkil qilish uchun moslashtirilgan elektron resurslar, raqamli vositalar hamda metodik materiallar majmuasidir. Yurtimiz olimlari tomonidan olib borilgan izlanishlarda raqamli metodik ta’minot konkret fanlar kesimidagi tuzilmasi, ko‘rgazmalilik va talabalarning mustaqil ishini tashkil etish jihatlari tomonidan takomillashtirilgan. Xorijiy olimlar tadqiqotlarida pedagogik texnologiyalar bilan raqamli vositalar o‘zaro uzviy bog‘liq holda o‘rganilgan. Jumladan, D.Laurillard raqamli metodik ta’minotni shunchaki muloqot vositasi emas, balki u talaba, o‘qituvchi hamda dastur o‘rtasida faol muloqot zanjiri vazifasini bajarishini ko‘rsatib berdi.

Tadqiqot ishida tahlil qilingan ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, bu yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning raqamli metodik ta’minotini yaratish va takomillashtirish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biri ekanligi aniqlandi. O‘zbekiston oliy ta’limida maskur yondashuv asosida o‘qitish va talabalarda STEM fanlari haqida bilimlarini oshirishda quyidagi muammolarni hal etish lozim ekanligi belgilab olindi:

STEM yondashuvi asosida bo‘lajak o‘qituvchilarini tayyorlash zaruriyatini o‘rganish hamda Yevropa va Osiyo mamlakatlarida STEM yondashuvi asosida ishlab chiqilgan dasturlarini tahlil qilish;

ushbu yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning raqamli metodik ta’minotini yaratishga qo‘yiladigan metodik, pedagogik, psixologik, texnik,

estetik talablarni ishlab chiqish hamda maskur yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish;

STEM yondashuvi asosida matematikani o‘qitishda raqamli texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha tahlillar olib borish va bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning raqamli metodik ta’minoti mazmuni o‘rganish;

bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning raqamli metodik ta’minoti va undan foydalanish metodikasini hamda raqamli metodik ta’minotdan foydalanishning didaktik modelini ishlab chiqish;

maskur yondashuv asosida tayyorlangan topshiriqlardan raqamli metodik ta’minot vositasida foydalangan holda dars ishlanmalarini tuzish.

Dissertatsiyaning **“STEM yondashuvi asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning raqamli metodik ta’minotini takomillashtirish”** deb nomlangan ikkinchi bobida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda STEM ta’lim texnologiyasiga asoslangan dasturiy vositalari, STEM ta’lim texnologiyasiga asoslangan dasturiy ta’minot vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning didaktik modeli, taklif etilayotgan texnologiyaga asoslangan dasturiy ta’minot vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashni raqamli metodik ta’minoti va undan foydalanish metodikasi yoritib berilgan.

Tadqiqot davomida bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli metodik ta’minotini takomillashtirishda Diana Laurillardning muloqot modeli STEM yondashuviga konseptual moslashtirildi. Natijada, raqamli metodik ta’minot tarkibidagi an’anaviy statik resurslar o‘rniga, talabalarda tadqiqotchilik va raqamli modellashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi, virtual simulyatorlar va refleksiv qayta aloqani ta’minlovchi dinamik-interaktiv elektron metodik tizim ishlab chiqildi (2-rasm).



2-rasm. STEM yondashuvi asosida raqamli metodik ta’minotni takomillashtirishda Laurillard modeli.

Tadqiqot jarayonida maskur yondashuvni ta’limda qo‘llash uchun Ta’limni boshqarish tizimlari (Learning Management Systems)dan foydalanishning ahamiyati o‘rganildi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda STEM ta’lim texnologiyasidan foydalanish uchun mutaxassislik fani hisoblangan “Algebra” fanidan raqamli o‘quv kursi tashkil etish taklif etilib, Dasht, Moodle, Eduardo, Yo-

Stadi, JetSkills, GetCourse, Teachbase, Equio, iSpring Learn, AntiTrening kabi ta’limni boshqarish tizimlarining imkoniyatlari, kamchiliklari, asosiy jihatlari va foydalanishdagi to‘siqlar bo‘yicha qiyosiy tahlil olib borildi hamda tahlil natijalariga ko‘ra, Canvas muhiti tanlab olindi.

Tadqiqot ishida pedagogik faoliyatda pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish va ular yordamida ta’lim jarayonini samarali tashkil etish uchun zarur bo‘lgan o‘quv-uslubiy materiallarni tayyorlash hamda ulardan ta’lim jarayonida foydalanish zaruriyati, pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining bo‘lajak kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi asosiy fanlardan biri hisoblangan “Algebra” fanining 1-2 kurslarida 1-3 semestrlar davomida o‘qitilishi, STEM yo‘nalishi asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash metodikasini takomillashtirishda, bu fanning o‘qitish jarayonini tanlashga asos bo‘ldi.

Bu yondashuv asosida raqamli ta’lim platformasini yaratishda quyidagi jihatlar e’tiborga olindi: interaktivlik va dizayn – video, matnli tasvirlar, animatsiyalar va boshqa zamonaviy vositalardan foydalanishning keng imkoniyatlari mavjudligi; so‘rovlar, viktorinalar va boshqalar interaktiv elementlarni qo‘shish; baholash turlari – talabalarning ilmiy va umumiy faoliyatini baholash uchun turli shakldagi interaktiv testlardan foydalanish; ma’lumotlarga asoslangan hisobotlar – talabalarning zaif va kuchli tomonlarini aniqlashda ularning faoliyatlari monitoringini olib borish; oson integratsiya – turli dasturlar bilan aloqa, foydalanish soddaligi – ma’lumotlarni oson topish, qulay interfeys.

STEM yondashuvi asosida takomillashtirilgan ta’lim platformasi bilan ishlash tashkiliy-texnologik jarayon va pedagogik-texnologik jarayonlardan iborat bo‘lib, ta’lim platformasi uchun kontent ishlab chiqish, ta’lim platformasiga kontentni joylashtirish bosqichlari tashkiliy-texnologik jarayon; ta’lim platformasidan ta’lim jarayonida foydalanish bosqichi pedagogik-texnologik jarayonda amalga oshiriladi.

Tadqiqot davomida, interaktiv nazorat topshiriqlari, loyiha ishlari komponentlari integratsiya qilingan, taqdimotlar, video darslar, amaliy va loyiha ishi topshiriqлari hamda nazorat testlaridan tarkib topgan.

Raqamli ta’lim platformasi va uning tarkibidagi elektron o‘quv kurslari bir qancha qismlardan tarkib topgan bo‘lib, talabalarga to‘laqonli bilim olishlari uchun imkoniyat beradi (3-rasm).



3-rasm. STEM yondashuvi asosida tayyorlangan kurslar oynasi.

STEM yondashuviga asoslangan ta’limiy platforma va o‘quv kursi asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning tayyorgarligini takomillashtirish modeli ishlab chiqildi (4-rasm).



4-rasm. STEM yondashuvi asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni raqamli metodik ta’minotidan foydalanishning didaktik modeli.

Dissertatsiya ishida Algebra fanidan ma’ruza, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini olib borish texnologik xaritasi, qo‘llanilgan shakl, usul, vosita hamda raqamli ta’lim platformasi orqali o‘qitish metodikasi yoritib berildi. Ta’lim platformasi yordamida ma’ruza mashg‘ulotlarni stem ta’limining didaktik imkoniyatlari inquiry-based learning (izlanishga asoslangan ta’lim), experiential learning (tajriba asosida o‘rganish), crossover learning (krossover ta’lim) kabi metodlardan foydalanib tashkil etish ijobiy natija ko‘rsatdi.

Dissertatsiyaning **“Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va uning samaradorligini aniqlash metodikasi”** deb nomlangan uchinchi bobida STEM asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish metodikasiga doir tajriba-sinov ishlari mazmuni, natijalari va tahlili yoritilgan.

Tajriba-sinov maydonlari sifatida Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti, Guliston davlat pedagogika instituti va Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabalari tanlab olindi. Tajribada jami 414 nafar talaba, jumladan, nazorat guruhi uchun 206 nafar, tajriba guruhi uchun 208 nafar 1-2-kurs talabalari qatnashdi.

Tajriba-sinov ishlari aniqlash bosqichi (2022-2023-yillar), ta’kidlash bosqichi (2023-2024-yillar), tasdiqlovchi bosqich (2024-2025-yillar)larda amalga oshirildi.

Tajriba-sinov ishlarining aniqlash bosqichida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda STEM yondashuvidan foydalanish zaruriyati, ilmiy-nazariy jihatlari ishchi farazi bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash metodikasi, o‘qitish holatlari hamda tashkil etish shakl, usul va vositalari tahlil qilindi.

“Algebra” kursining namunaviy fan dasturi tahlil qilindi, STEM ta’limining ta’limiy xususiyatlari aks etgan “STEM Education” nomli ta’lim platformasi va uning tarkibida “STEMdigital1”, “STEMdigital2”, “STEMfuture” o‘quv kurslari (https://canvas.instructure.com/courses/12478987) yaratildi va talabalarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi ma’ruza matnlari, video darslar, interaktiv nazorat topshiriqlari, onlayn test topshiriqlari, loyiha ishlari va STEM yondashuvi asosida tayyorlangan topshiriqlar tizimi integratsiya qilindi.

Ta’kidlash bosqichida yaratilgan dars ishlanmalari, STEM yondashuvi asosida yaratilgan ta’lim platformasi yordamida samarali tashkil etish mazmuni ishlab chiqilib, tajriba-sinov maydonchalari tanlandi. Tanlagan tajriba-sinov maydonchalarida taklif etilayotgan dars ishlanmalarini amaliyotda sinab ko‘rish uchun oliy ta’lim muassasalaridan malakali professor-o‘qituvchilar bilan tadqiqotchi hamkorlikda o‘quv jarayonini olib bordi.

Nazorat guruhlaridagi ta’lim jarayoni amaldagi o‘quv reja va dastur, o‘qitish metodikasiga binoan amalga oshirilgan bo‘lsa, tajriba-sinov guruhlarida biz taklif etgan reja va dastur hamda STEM yondashuvi asosida, ta’lim platformasidan foydalanilgan holda amalga oshirildi.

Tasdiqlovchi bosqichda tadqiqot natijalarining talabalar tomonidan o‘zlashtirilganlik darajasini baholash maqsadida rubrikali baholashdan foydalanildi. Bunda bo‘lajak o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda STEM texnologiyasidan foydalanish asosida talabalar bilimini baholashni motivatsion,

